

**Yo‘nalish:**Ma‘naviy va ma‘rifiy ishlarni samarali tashkil etishda innovatsiya

**Mavzu:**Boshlang‘ich sinflarda“Ertakchi bolajon ”tanlovini o‘tkazish

**Pedagogik innovatsion g‘oyaning maqsadi:**

Umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik qobiliyatlarini rivojlantirish, notiqlik mahoratini oshirish ,o‘z fikrini teran bayon qilishga orgatish,shu orqali ularda o‘z qobiliyati va iqtidorini namoyon etishiga ko'maklashish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun (7-10 yosh) oralig‘ida “Yosh kitobxon” tanlovining yo‘qligi bois boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida yangi tanlov tariqasida “Ertakchi bolajon” tanlovini joriy etish.

**Pedagogik innovatsion g‘oyaning foydalanish doirasi:**

1-4 sinflarning ona tili va o‘qish o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida, sinfda va sinfdan tashqari ishlar jarayonida

**Pedagogik innovatsion g‘oyaning natijaviyligi:**


Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik qobiliyatlarini rivojlantiradi, notiqlik mahoratini oshiradi ,o'z fikrini teran bayon qilishga orgatadi,shu orqali ularda o'z qobiliyati va iqtidorini namoyon etishlariga ko'maklashadi.

Kitob, avvalo, hayotiy maktab, ma‘naviyat manbai. U kitobxonni hayot bilan tanishtiradi, unda hayotni sevish, yashash mohiyatini anglash hislarini tarbiyalaydi. Atrof-muhitga, tabiatga ijobiy munosabatini shakllantiradi, inson xarakterining murakkabliklarini tushuntiradi, ruhiy qiyofaning rangin qirralarini kashf qilish qobiliyatini, ona Vatanga, xalqiga sadoqatli bo‘lish tuyg‘usini o‘stiradi. Badiiy adabiyot o‘qish orqali kitobxonning badiiy idroki, mustaqil fikrlash qobiliyati, mutolaa madaniyati, Vatan taqdiri uchun javobgarlik tuyg‘usi tarbiyalanadi.

Badiiy asar qaysi tur va janrga mansubligidan qat'iy nazar, uning mohiyatida inson shaxsini kamol toptirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'zlashtirish, odamiylik sifatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan bir qator didaktik xususiyatlar, estetik tamoyillar mujassamlashgan bo'ladi. Badiiy asarning eng muhim xususiyati shundaki, u inson qalbini mayinlashtiradi, tuyg'ularini o'zlashtiradi, ma'naviy-ruhiy barkamollikni tarbiyalaydi.

Badiiy adabiyot insoniyat hayotini charog'on yetishi, inson umriga nurafshonlik baxsh yetib, ma'naviy olamini shakllantirishi va yuksaltirishi, porloq kelajak uchun munosib to'g'ri yo'lni tanlashga yordam berishi, kitobning insoniyat tomonidan yaratilgan yeng buyuk kashfiyot ekanligi bois har qanday davr va zamonda kitob o'qish, kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish dolzarb ahamiyat kasb yetib kelgan. Ayniqsa, bugungi kunda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan mazkur masalalarga davlat siyosati darajasida qaralib, samarali ishlar yo'lga qo'yildi. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" asosida barcha soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlar, avvalo, xalqning ijtimoiy turmushini yaxshilashga, ma'naviy-ma'rifiy tafakkurini yuksaltirishga, barchaga birdek go'zal va farovon hayotiy muhit yaratishga erishishga qaratildi. Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani hamda xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga jiddiy ahamiyat berildi. Bundan tashqari ning qabul qilinishi ham, bu tashabbusning 4- yo'nalishi aynan

kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilganligi ham alohida e'tiborga molikdir.



Yana mamlakatimiz bo'ylab o'tkazilayotgan

1

• "Yosh kitobxon" tanlovi

2

• “Eng faol kitobxon guruh”

3

• “Eng kitobxon oila”

*tanlovlarining tashkil qilinishi va g‘olib kitobxonlar turli darajadagi qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlanishi;* yirik nashriyotlar tomonidan o‘zbek xalqi va jahon adabiyotining durdona asarlari qayta tahrirlanib, yanada sifatli nashr etilishi, ijtimoiy-ma’naviy ko‘makka muhtoj fuqaro va oilalarga badiiy-estetik salmoqdor kitoblar, badiiy adabiyotlarning tuhfa qilinishi ushbu qonunlarda belgilangan vazifalar ijrosi bo‘lishi bilan bir qatorda aholi, xususan, yosh avlodning mutolaa madaniyatini kamol toptirishga, ma’naviy-ma’rifiy tafakkurini yuksaltirishga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Lekin globalashuv jarayonida yoshlar, kattalar bilan bir qatorda kishik yoshdagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ham kitobdan uzoqlashuvi, tezkor axborot vositalariga yaqinlashuvi kuzatilmoqda. Ushbu pedagogik innovatsion g‘oya esa quyidagi muvozanatni saqlashga yordam berishiga ishonaman:



## **“Ertakchi bolajon” tanlovning maqsadi:**

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarining kitobxonlik qobiliyatlarini rivojlantirish, notiqlik mahoratini oshirish, o‘z fikrini teran bayon qilishga o‘rgatish, shu orqali ularda o‘z qobiliyati va iqtidorini namoyon etishlariga ko‘maklashish.

**• Tanlov 3 bosqishda o‘tkaziladi.**

**1-Bosqichi: Maktab bosqichi - barcha umumiy o‘rta ta‘lim maktabining 1-2-3-4-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkaziladi.**

**2-bosqich. Hududiy bosqich- maktablardan g‘olib bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkaziladi.**



**3-bosqich : tuman bosqichi -Barcha hududlardan 1-o'rinni egallagan o'quvchilar o'rtasida o'tkaziladi.**

**Tanlov ishtirokchilari har bir ertak uchun 10 ballik tizimda hakamlar hay'ati tomonidan baholanadi .**

**Tanlov shartlari va baholash mezonlari**

**1-sinflar-10-15 tagacha ertak**

**2-sinflar-15-20 tagacha**

**3-sinflar-25-30 tagacha**

## 4-sinflar-30-40 tagacha ertak

“Ertakchi bolajon” tanlovidan lavhalar:



Xullas, “Ertakchi bolajon ”tanlovi haqida yanada to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun ushbu tanlov nizomini ilova qilaman:

## **“Ertakchi bolajon” tuman tanlovi**

### **NIZOMI**

#### **Umumiy qoidalar**

- 1.Ushbu Nizom umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida “Ertakchi bolajon” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.
- 2.Tanlov G‘ijduvon tuman Xalq ta’limi bo‘limining o‘quv – tarbiya jarayonini metodik ta’minlash sho‘basi hamda boshlang‘ich ta’lim metodistlari hamkorligida o‘tkaziladi.

#### **Tanlovning maqsadi:**

Umumta’lim maktablari o‘quvchilarining kitobxonlik qobiliyatlarini rivojlantirish, notiqlik mahoratini oshirish, o‘z fikrini teran bayon qilishga, shu orqali ularda o‘z qobiliyati va iqtidorini namoyon etishlariga ko‘maklashish.

#### **Tanlovni tashkil etish tartibi**

Tanlov uch bosqichda o‘tkaziladi:

**1-bosqich:**Maktab bosqichi -barcha o‘rta ta’lim maktabining 1-2-3-4- sinf o‘quvchilari o‘rtasida 1-10- oktyabr kuniga qadar o‘tkaziladi . Har bir maktabdan

1-o‘rinni egallagan o‘quvchilarning o‘qigan ertaklar soni, nomi va o‘quvchi haqida ma’lumotnoma metodistiga yetkaziladi.

**2-bosqich:** Hududiy bosqich – hudud rahbari boshchiligida komissiya tuzilib o‘tkaziladi. Bayonnomasi va komissiya qarori tuman xalq ta’limi bo‘limi metodistiga yetkaziladi.



**3-bosqich:** Tuman bosqichi – barcha hududlardan 1- o‘rinni egallagan o‘quvchilar 4 kun davomida : 1-kun 1-sinflarda, 2-kun 2-sinflarda, 3-kun 3-sinflarda, 4-kun 4-sinflarda o‘tkaziladi.

Tuman bosqichida 1-2-3- o‘rinni egallagan o‘quvchilar faxriy yorliq va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlanadi. Tanlovning 1-bosqichini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq tashkiliy ishlar maktab metod birlashmasi tomonidan tashkil etiladi. Tanlovning maktab bosqichida o‘zi o‘qigan ertaklar ro‘yxatini taqdim etgan o‘quvchilar ixtiyoriy qatnashadi. 2-bosqichga ishtirok etish uchun yuboriladigan tanlov g‘oliblari haqidagi ma‘lumotlar (hakamlar hay‘atining qarori nusxasi va tasdiqlangan o‘quvchilar ro‘yxati) xalq ta‘limi bo‘limi tashkiliy guruhiga taqdim etiladi.

### **Tanlov shartlari va baholash mezonlari**

Tanlov ishtirokchilari har bir ertak uchun 10 ballik tizimda hakamlar hay‘ati tomonidan baholanadi. O‘quvchilar o‘zi o‘qigan ertaklar ro‘yxatini taqdim etadi.

1-sinflar-10-15 tagacha

2-sinflar-15-20 tagacha.

3-sinflar 25-30 tagacha

4-sinflar 30-40 tagacha

Tanlov sharti bo‘yicha hujjatlar taqdim etilgach, hakamlar tomonidan tanlab olish yo‘li bilan 3 tadan 5 tagacha ertak nomi aytiladi. To‘liq javob bergan o‘quvchining ertaklar ro‘yxati to‘liq qabul qilinadi. O‘quvchilar bir ertak uchun 10 ballni qo‘lga kiritadi.

### **G‘oliblarni taqdirlash**

1. Tanlovning faol ishtirokchilari va g‘oliblari umumiy o‘rta ta‘lim maktablariida “Ertalabki saflanish” larda e‘lon qilinadi.

2. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari rahbariyati tomonidan tanlovda ishtirok etgan va g‘olib bo‘lgan o‘quvchilarning otalariga “Tashakkurnomalar” yuboriladi.

3. Tanlovning tuman bosqichida faol ishtirok etgan va g'olib bo'lgan ishtirokchilar xalq ta'limi bo'limi boshqaruv organlari tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi. Tanlovning tuman (shahar) bosqichida 1,2,3-o'rinni olgan o'quvchilarga turli darajadagi diplomlar beriladi.